

TALABALAR O'QUV AMALIYOTINI HAMKORLIK ASOSIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Namangan Davlat Universiteti

Mustaqil izlanuvchi: Shodiya Boytumanova Anvar qizi

e-pochta: boytumanovashodiya@gmail.com

Annotatsiya: O'quv amaliyoti ta'lim jarayonining muhim qismi bo'lib, talabalar nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan boyitadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'quv amaliyotini samarali tashkil etish, talabalarni faol ishtirok etishga, hamkorlikda ishlashga va real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlashga yordam beradi. Ushbu maqolada talabalar o'quv amaliyotini hamkorlik asosida tashkil etishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar haqida so'z yuritimiz.

Kalit so'zlar: ta'lim, ilm-fan, taraqqiyot, bilim, malaka, kasb, oliy ta'lim, hamkorlik, texnologiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КООПЕРАЦИИ

Аннотация: Учебная практика является важной частью образовательного процесса и обогащает теоретические знания студентов практическими навыками. Эффективная организация учебной практики с помощью современных педагогических технологий помогает подготовить студентов к активному участию, сотрудничеству и решению реальных жизненных ситуаций. В данной статье мы поговорим о педагогических технологиях, используемых при организации учебной практики студентов на основе сотрудничества.

Ключевые слова: образование, наука, развитие, знания, навыки, профессия, высшее образование, сотрудничество, технологии.

PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF ORGANIZING STUDENTS' EDUCATIONAL PRACTICE ON THE BASIS OF COOPERATION

Abstract: Educational practice is an important part of the educational process and enriches students' theoretical knowledge with practical skills. Effective organization of educational practice with the help of modern pedagogical technologies helps to prepare students for active participation, cooperation and real-life situations. In this article, we will talk about the pedagogical technologies used in the organization of students' educational practice on the basis of cooperation.

Key words: education, science, development, knowledge, skills, profession, higher education, cooperation, technology.

Kirish

O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va yangiliklar, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri, ta'lim tizimining sifatini oshirish va zamonaviy talablar asosida qayta qurish maqsadida amalga oshirilgan. Ushbu qonun ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan ko'plab parametrlarni belgilab berdi. Qonunning 35-moddasiga ko'ra, o'quv rejasida ta'lim jarayonining jadvali, darslarning boshlanishi va davomiyligi, o'quv yillari, choraklar va semestrlar kabi muhim jihatlar aks ettirilishi zarur. Bu esa, o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini yanada tartibli va samarali ravishda boshqarishga yordam beradi. Shuningdek, qonunda amaliyot va ta'tillar hamda attestatsiya jarayonlari uchun ajratilgan haftalar soni ham ko'rsatilgan. O'quv rejalari doirasida o'rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) ham belgilab qo'yilishi ta'lim jarayonining shaffofligini oshiradi. Umuman olganda, ushbu qonun O'zbekistonning ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan harakatlarning bir qismi bo'lib, yosh avlodni raqobatbardosh bilimlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakat ravnaqi uchun juda muhimdir. Ta'lim sohasidagi bunday islohotlar nafaqat o'qituvchilar va talabalarning sifatli bilim olishlariga yordam beradi, balki jahon standartlariga mos keladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

Asosiy qism

Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi, asosan, kasbga oid tasavvurlar va tushunchalarning rivojlanishi bilan boshlanadi. Bu jarayon davomida mutaxassislikka oid bilimlar, malakalar va ko'nikmalar o'zlashtiriladi, shuningdek, kasbiy sifatlar ham shakllanadi. Kasbiy tayyorgarlik darajasi esa shaxsning kasbiy faoliyatga nisbatan moslashish qobiliyati bilan bog'liqdir. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimini yaxshilash va sifat-monitoringini oshirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilimlar, malakalar va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularning kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bunday yondoshuv pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yanada samarali ravishda shakllantirish imkonini beradi. Ta'lim jarayoni davomida o'qituvchilarning amaliy tajribalarini kengaytirish, innovatsion metodlarni qo'llash va zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash bo'yicha ishlanmalarni amalga oshirish

zarur. Bu orqali ta'lim tizimining samaradorligini oshirib, o'qituvchilarning professionallik darajasini yanada yuqori ko'tarishga erishiladi.

Shu bilan birga, pedagog mutaxassislarining shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rag'batlantirish ham muhimdir. O'qituvchilarni zamonaviy pedagogik yondoshuvlar bilan tanishtirish orqali ularning ish faoliyatidagi motivatsiya va ishtiyoqi oshirilishi mumkin. Natijada, bu jarayon nafaqat o'z-o'ziga ishonchni rivojlantiradi balki kasbiy tayyorgarlik darajasini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

Zamonaviy texnologiyalar hamkorlik asosidagi o'qitishda muhim ahamiyatga ega:

❖ Onlayn platformalar (masalan, Google Classroom yoki Microsoft Teams) orqali talabalar masofadan turib hamkorlik qilishi mumkin. Bu platformalarda resurslar almashinuvini amalga oshirish va guruh muhokamalarini olib borish imkoniyatlari mavjud.

❖ Pedagogik o'yinlar orqali talabalarga vazifalarni bajarishda raqobat muhiti yaratish mumkin, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quv amaliyoti talabalarining nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan boyitish, ularni real ish sharoitlariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalar o'quv amaliyotini hamkorlik asosida tashkil etish, ularning ijtimoiy, kommunikativ va professional ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Hamkorlik asosidagi ta'lim — bu talabalar o'rtasida fikr almashish, bilimlarni bir-birlariga etkazish va birgalikda muammolarni hal qilish jarayonidir. Bu usul orqali talabalar o'zaro muloqot qilish, jamoaviy ish olib borish va turli nuqtai nazarlarni hisobga olish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Talabalarni o'quv amaliyotiga jalb qilishda loyiha metodologiyasi samarali vosita bo'lishi mumkin. Talabalar guruhlariga bo'linib, ma'lum bir loyiha ustida ishlaydi. Loyihaning har bir bosqichi uchun maqsadlar belgilangan bo'ladi va talabalar o'zaro hamkorlik qilib, natijalarni taqdim etadilar. Bu jarayon davomida ular ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar o'quv amaliyotini hamkorlik asosida tashkil etish, zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonning samarali o'tishini ta'minlash uchun bir qator pedagogik texnologiyalarni qo'llash mumkin. Quyida bunday texnologiyalarning ba'zilari keltirilgan:

➤ Guruhli ish – talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, birgalikda muammolarni hal qilish yoki loyiha ustida ishlashga undaydigan usuldir. Bu usul talabalar orasida fikr almashish, tajriba va bilimlarni baham ko'rishni rag'batlantiradi.

➤ Kollaborativ ta'limda talabalar bir-biri bilan faol muloqot qilib, o'zaro bilim va tajribalarini almashadilar. Bu metod orqali talabalar bir-biridan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi va jamoaviy mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

➤ Bu usul muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, talabalar real hayotdagi vaziyatlar orqali bilim olishadi. Muammo asosida o'zlashtirish jarayoni talabalarni faol ishtirok etishga undaydi.

➤ O'qituvchilar talabalarni qo'llab-quvvatlab, ularning o'z-o'zini boshqarishiga yordam beradigan model hisoblanadi. O'qituvchi sifatida murabbiy rolini bajarib, talabalar tomonidan keltirilgan fikr va g'oyalarni rag'batlantirish zarur.

➤ Zamonaviy texnologiyalar yordamida onlayn platformalarda darslar o'tkazish hamkorlik asosidagi amaliyotni tashkil etishda juda foydali bo'lishi mumkin. Bu platformalarda talabalar bir-biri bilan muloqot qilib, global miqyosda tajriba almashadilar.

➤ Simulyatsiya va rolli o'yinlar orqali talabalarga turli vaziyatlarni boshdan kechirish imkoniyati beriladi, bu esa ularga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Xulosa

Talabalar o'quv amaliyotini hamkorlik asosida tashkil etish pedagogik texnologiyalar yordamida yanada samarali amalga oshirilishi mumkin. Bunday yondoshuv nafaqat bilimlarni mustahkamlovchi jarayonni ta'minlaydi, balki talabalarning ijodiy fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va jamoaviy ish ko'nikmalarini oshiradi. Kelajakda bunday metodlarni kengaytirish va takomillashtirish ta'lim sifatini yaxshilaydi va talabalarning professional faoliyatlariga tayyorgarligini kuchaytiradi. Talabalarning o'quv amaliyotini hamkorlik asosida tashkil etishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash nafaqat ularning bilim darajasini oshiradi, balki ijtimoiy hayotga tayyorlangan mutaxassislarni yetishtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir pedagog yangi metodlarni izlab topishi va ulardan samarali foydalanishi lozimdir; bu esa talabalarning kelajakdagi faoliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, zamonaviy pedagogika talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan innovatsion g'oyalarni amalga oshirish yo'lidan borishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni Ta'lim to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil.
2. O'zbekiston uzluksiz ta'limining davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti 2021 -yil 16-iyul.
3. B.Xadjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Toshkent "IQTISODIYOT DUNYOSI" 2018.
4. Haydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. B- 18-32.
5. Tolipov O'.Q oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari/ Monografiya. - T.: Fan, 2004.b - 73-80.
6. Xusnidinova Gulnoza Zoxidjon qizining Magistrlik dissertatsiyasi «Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishning pedagogikshart-sharoitlari ».